# ZAMONAVIY TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Umarova Amina**
*"Texnologik ta'lim" yo'nalishi 2-kurs talabasi*
*Navoiy davlat pedagogika instituti*
*Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof.*
**D.Kamalova**

Biz bilamizki, oddiygina o'yinchoqlar, televizorlar, fotoapparatlar, tikuv mashinkalari, kompyuterlar, planshetlar, uyali aloqa telefonlari, turli xildagi robotlar kichik va katta hajimdagi barcha texnologiyalar insonlarning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelgan.

Jamiyat rivojlanib borgani sari insonlarning ehtiyojlari yanada ortib o'z ehtiyojlari uchun yangi izlanishlar, ixtirolar hamda kashfiyotlarni shakllantiraverishadi.

Bularning hammasi uchun katta mashaqqat va izlanish lozim. Shunday ekan, bugungi kunimizdan keng foydalangan holda o'z ustimizda ishlab, ilmiy tadqiqotlar olib borib zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishimiz joiz.

Bu kabi zamonaviy texnikalardan foydalanib xalq hunarmandchiligi, dehqonchilik, ustachilik, qolaversa bozor iqtisodiyoti, qo'shni mamlakatlararo expertlarga ham ulkan hissa qo'shishimiz mumkin.



**300 yillik pichoqchilik an'analari hunarmandi Alixo'jayev Raxmatxo'ja ota**

Andijon pichoqchiligi, Namanganning mashhur "chust" pichoqlari, birgina pichoqchilik ustachiligi bilan shug'illanuvchi usta hunarmandlarimizning qilayotgan ishlari, bir necha yuz yillik tarixga ega, bu kasbning mehnati o'gir noni shirin, rizqi haloldir.

Zamonaviy tokarlik stanoklari, frezalash dastgohlari, vint qirqish uskunalari, plitalar kesish arralari, yog'och kesish dastgohlari, kiyim-kechak bichish aparatlari kabi aqlli texnologiyalar ishlab chiqarilgandan so'ng shu va shunga o'xshash temirchilik, mebelsozlik, tikuvchilik, duradgorlik va chilangarlik ishlarida ish qiyinchiliklari kamayib sifat va mehnast unumdorligi ortib bormoqda. Vaholanki, bu mahsulotga bo'lgan talab va istakning keskin oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bobo dehqonlarimizning mehnatlari ostria bozolarni qishin yozin to'ldirib turgan sabzavotlaru mevalar, kichik sexlardan bozorlargacha yetkazilib berilayotgan turli xildagi kiyim kechaklar, turli xildagi xom ashyo ba'zalari, mashinalar ishlab chiqarish zavodlari, to'quvchilik fabrikalari, ip yigirish zavodlari, gilamchilik zavod fabrikalari, tilla zavodlaridagi keng ko'lamli ishlar olib borilishi barchasi katta sarmoya va foyda keltiradi.

Yangi qonunchiligimizda tadbirkorlik istagidagi yoshlarimiz uchun davlatimiz tomonidan keng ko’lamli dastur rejalari yo’lga qo’yilgan, ushbu nizomga ko’ra Qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo‘lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari va ushbu huquqlarni himoya qilish choralari bilan bog‘liq munosabatlar chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ushbu huquqlarni himoya qilish choralari to‘g‘risidagi qonunchilik bilan ham tartibga solinadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi, huquq va majburiyatlarni oladi hamda amalga oshiradi. Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlar tuzayotganida, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida harakat qilayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o‘zidan aniq anglashilmasa, ko‘rsatishi kerak. Bunday eslatmaning mavjud emasligi yakka tartibdagi tadbirkorni o‘z majburiyatlari bo‘yicha zimmasidagi javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamplardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim.




**Mebel ishlab chiqarish stanogi**

Yuqorida takidlaganimiz kabi, kundan-kunga yangi zamonaviy texnologiyalar yanada rivojlanib bormoqda. Texnologiya fanini o’qib o’rganar ekanimiz anashu texnalogiyalarni diqqat bilan o’rganib o’z ustimizda ishlab yurtga kerakli fidokor insonlar bo’lib yetishishimiz lozim. Bizga berilayotgan imkoniyatlardan keng va albatta samarali foydalanmog’imiz darkor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.lex.uz.
2. O’.O.Tohirov, I.Karimov, M.Maxsimova. Texnologiya. 8-sinf. Toshkent. 2019.
3. Раҳмонов, М. (2023). ҲИС-ҲАЯЖОН ВА САЛОМАТЛИК. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(15), 55-63.

4. Раҳмонов, М. (2021). СЎЗНИНГ САЛОМАТЛИККА ТАЪСИРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 42-42.

5. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).

6. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.

7. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.

8. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30

9. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.